

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**MAXSUS PEDAGOGIKADA TALABALARINI KASBIY METODIK
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK SHART- SHAROITLAR**

Gulyamova Aziza Anvarovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

ANOTATSIYA Har bir shaxs individual hisoblanib uning ta’lim olish jarayonidagi shaxsiy sifatlari ham bir biridan farq qiladi. Biroq ta’lim sistemasida dars berish, sammarali ta’lim shaklini tashkil etish sifatlari yaxlit, umumiylis hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog hisoblanmish shaxs ushbu jihatlarni bilishi va kelgusida muvafaqqiyatli ta’lim shaklini tashkil eta olishi zarur. Shu o‘rinda pedagogik fanlar ushbu jarayonni osonlashtirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat maxsus maktablarda ta’lim berish yanada murakkab hisoblanib bu jarayonni esa maxsus pedagogika sohasi yengillashtirib beradi. Ammo barcha sohalari uchun umumiylis bo‘lgan kasbiy kompetentlik va pedagogik ta’lim shart-sharoitlari mayjud bo‘lib ushbu maqolada bu jarayonlarni yoritib o‘tganmiz.

Kalit so‘zlar: shaxs, talaba, maxsus pedagogika, ta’lim, kasbiy kompetentlik, dars jarayoni, individual, o‘qituvchi, o‘quvchi, akademik hayot, pedagogik jarayon, kommunikatsiya, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik.

АННОТАЦИЯ Каждый человек считается индивидуальностью и его личностные качества в процессе воспитания отличаются друг от друга. Однако качества преподавания в системе образования и организации эффективной формы обучения являются целостными и общими. Будущему педагогу необходимо знать эти аспекты и уметь в будущем организовать успешную форму обучения. Здесь педагогические науки служат облегчению этого процесса. На самом деле обучение в специальных школах считается более сложным, и этому процессу способствует область специальной педагогики. Однако существуют общие для всех областей условия профессиональной компетентности и педагогического образования, и эти процессы мы рассмотрели в данной статье.

Ключевые слова: личность, студент, специальная педагогика, образование, профессиональная компетентность, учебный процесс, личность, преподаватель, студент, научная жизнь, педагогический процесс, общение, методическая компетентность, информационная компетентность, творческая компетентность, инновационная

компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, исключительная компетентность.

ANNOTATION Each person is considered an individual and his personal qualities in the process of education are different from each other. However, the qualities of teaching in the educational system and organizing an effective form of education are integral and general. It is necessary for a future pedagogue to know these aspects and be able to organize a successful form of education in the future. Here, pedagogical sciences serve to facilitate this process. In fact, teaching in special schools is considered more complicated, and this process is facilitated by the field of special pedagogy. However, there are conditions of professional competence and pedagogical education that are common to all fields, and we have covered these processes in this article.

Key words: person, student, special pedagogy, education, professional competence, teaching process, individual, teacher, student, academic life, pedagogical process, communication, methodical competence, informational competence, creative competence, innovative competence, personal competence, technological competence, extreme competence.

KIRISH. Dunyo miqyosida talabalarning sifatli ta’lim olishiga va o‘qitish sistmasining samaradorligini oshirish, sifatli ta’limni tashkil etish va talabalarни o‘quv jarayonlarini qo‘llab quvvatlash ortib bormoqda. O‘qituvchilardan talabalarga ayniqsa maxsus ta’lim talabalariga ta’lim muhitida rahbarlik qilish, dars mashg‘uloti jarayonida o‘quv faoliyatini qo‘llab quvvatlash va akademik hayot qiyinchiliklarini hal qilishda yordam berish. Maxsus ta’lim talabalari uchun o‘qituvchining roli yanada muhimroq bo‘ladi. Ushbu talabalarning eng yaxshi ta’lim olishlarini ta’minlash uchun maxsus o‘qituvchi mahoratining noyob to‘plami va ularning ehtiyojlarini chuqur anglash talab etiladi. Shunday ekan ushbu ko‘nikmalar nima ekanligini va ularni qo‘llab - quvvatlovchi va samarali o‘quv muhitini yaratish uchun ularni qanday rivojlantirish mumkinligini ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kommunikativ va kasbiy kompetentlik jarayon sifatida A.Adler, Z.Freyd, E.Goffman, K.Yung, D.Karnegi, K.Goldshteyn, A.Piz, P.Ekman, Y.S.Kuzmin,[3] V.N.Kunitsina, V.A.Labunskaya, G.Lasswell, M.A.Shoshonov[2] va boshqalar olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

M.A.Shoshonov o‘zining tadqiqotida «kompetentlik» tushunchasini quyidagicha talqin qiladi:[4]

1. kompetentlik qisqa tarzda an’anaviy uchlik “bilim, ko‘nikma va malakalar”ning birligida ifodalanadi va uning komponentlari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi;
2. kompetentlik talaba, ya’ni bo‘lajak mutaxassis tayyorgarligining real darajasini tavsiflash uchun xizmat qiladi;
3. kompetentli mutaxassis ko‘plab yechimlar orasidan eng maqbulini tanlash qobiliyatiga ega bo‘ladi, samaralini samarasizdan, samarasizni samaralidan farqlay oladi va tanqidiy mulohaza yuritadi;

4. kompetentlik bilimlarni doimiy ravishda yangilashni, ayni vaqtida shartsharoitlarda kasbiy masalalarni muvaffaqiyatli ravishda yechish uchun yangi axborotlarni egallashni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik – bu ish harakat faoliyatini faol amalga oshirish qobiliyati;

5. kompetentlik ham bilim, ham ko‘nikma komponentlarini qamrab oladi. Boshqacha aytganda, kompetentli shaxs nafaqat muammo mohiyatini tushunishi lozim, balki uni amaliy echa bilishi, ya’ni yechish borasida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak.

Oliy ta’limning bosqichli tizimiga o‘tish ta’limning turli bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchi kommunikativ kompetensiya mohiyati, maqsadli va sifat orientirlari (mo‘ljallari)ni belgilab bergani sababli zamonaviy sharoitlarda metodologiya ahamiyatiga ega bo‘lgan va uni modernizatsiyalashning jiddiy pedagogik omili sanalayotgan kompetent (kompetensiyaviy) yondashuv qoidalarini dolzarblashtirmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Maxsus pedagogikani o‘rganish, maxsus maktablarda ishlash va pedagogik faoliyatni oshirish uchun talabalarda kasbiy pedagogik komponentlikni shakllantirish lozim. Ya’ni pedagogik kompetentlik bu pedagogik jarayon zamirida yuzaga keladi. Pedagogik jarayon to‘g‘ri shakllansagina o‘qituvchi o‘z pedagogik kompetentligini samarali qo‘llay oladi.

Pedagogik jarayon so‘zini izohlaydigan bo‘lsak, pedagogik jarayon - bu zarur bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish maqsadida insonlar tomonidan tashkil etilgan faoliyat shaklidir. Pedagogik jarayonlar boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi.

Maxsus pedagogik faoliyatni tashkil etishga nazariy va amaliy tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni bajara olish, pedagogik faoliyat natijalarini real baholash ko‘zda tutiladi.

Shunday qilib, pedagogik komponentlik turlari quyidagilardan iborat:[1]

❖ psixologik kompetentlik - bu pedagogik o‘quv jarayonida sog‘lom psixologik muhitni yaratish, o‘quvchilar bilan ijobiy kommunikativ muloqotni tashkil etish va salbiy psixologik konfliktik munosabatlarni anglash va o‘z vaqtida bartaraf qilish tushuniladi;

❖ metodik kompetentlik - bunda pedagogik o‘quv jarayonini metodik vositalar bilan ta’minalash, ta’lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, o‘quv jarayonidagi metod va vositalarni maqsadli tanlay olish va metodlardan samarali foydalanish tushuniladi;

❖ informatsion kompetentlik - bu informatsion axborot muhitida kerakli va foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli va o‘rinli foydalanish tushuniladi;

❖ kreativ kompetentlik - bu pedagogik o‘quv faoliyatiga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, pedagogik ijodkorlik malakalarini dars jarayonida ko‘rsata olish tushuniladi;

❖ innovatsion kompetentlik - bu pedagogik o‘quv jarayonini takomillashtirish, talim sifatini yanada yaxshilash, talabalar va o‘quvchilar tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir g‘oyalarni pedagogik amaliyotga muvaffaqiyatli qo‘llash tushuniladi;

- ❖ kommunikativ kompetentlik - bu o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy va samarali muloqotda bo‘lish, ularni tinglay olish va ularda ijobjiy hissiyotni uyg‘ota olish tushuniladi;
- ❖ shaxsiy kompetentlik - bu kasbiy pedagogik o‘sishga erishish, pedagogik malaka darajasini oshirib borish, kasbiy pedagogik faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqara olish tushuniladi;
- ❖ texnologik kompetentlik - bu kasbiy pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalanish tushuniladi;
- ❖ ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish va to‘gri harakatlana olish tushuniladi.

Biroq shuni unutmaslik lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan kasbiy kompetentlikni oshirish va uni shakllantirish uchun har bir bo‘lajak pedagog o‘zini-o‘zi tahlil va tanqid qilishi, o‘z ustida ishlashi va pedagogik mahoratini oshirishi zarur. Bo‘lajak pedagog o‘z ustida ishlashi va mahoratini oshirishi quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:[5]

- o‘z kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib borishida;
- o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshishida;
- o‘z kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishishida;
- o‘zining ishchanlik qobiliyatini rivojlantirishida;
- o‘zining salbiy odatlarni bartaraf eta olishida;
- o‘zining ijobjiy sifatlarni o‘zlashtira olishida.

Ko‘rinib turibdiki, har bir bo‘lajak pedagog o‘zing kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, o‘zini-o‘zi tanqidiy baholay olishi, o‘quv jarayonining jadal sur’atlarda o‘sishini ta’minlashi lozim.

Bo‘lajak pedagog uchun kasbiy komponentlik zarur bo‘lgani kabi pedagog faoliyati uchun pedagogik shart-sharoitlar ham zarur. Pedagogik shart-sharoitlarni quyidagi turlarga ajratib o‘tamiz:[6]

1. Ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘quv jarayoni binoviy vositalari, ya’ni sinf binosi va jihozlari.
2. Ta’lim berishdagi moddiy texnik vositalar, ya’ni turli xil interaktiv taqdimot vositalari, rangli qalam va boshqalar.
3. Ta’lim jarayonidagi sifatli ta’lim muhiti, ya’ni oquv jarayoniga va ta’lim olishga intilayotgan yoshlar jamoasi. Bunda maxsus pedagogik faoliyat olib boriladigan o‘quvchilar kesimida yondashildi.

Albatta bularning bari sifatli pedagogik ta’limni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Maxsus pedagogik sharoitlar tashkil etilishi uchun bir nechta qoidalar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:[7]

1) pedagogik shart-sharoitlar har qanday maxsus pedagogik tizimning majburiy qismidir;

2) pedagogik shart-sharoitlar maxsus ta‘lim-tarbiya jarayoni subyektlarining o‘zaro hamkorligi, shuningdek, oliv ta‘lim muassasasi muhitining maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan chora-tadbirlarida ifodalangan professional ta‘lim muhitining imkoniyatlarini ifodalaydi;

3) Maxsus pedagogik shartlarning tarkibiy komponenti ichki va tashqi elementlar bilan ifodalanadi, bu esa, bir tomondan, ta‘lim-tarbiya jarayoni subyektlarining shaxsiy sohasini rivojlantirishga kerakli ta‘sir ko‘rsatadi, ikkinchi tomondan, pedagogik tizimning komponentini shakllantirishga yordam beradi;

4) yetarli darajada tanlangan maxsus pedagogik sharoitlarni amalga oshirish zamonaviy maxsus pedagogik tizimlarning samarali ishlashi va rivojlanishini aniqlaydi.

XULOSA. Xulosa qiladigan bo‘lsak, pedagogik va maxsus pedagogik sharoitlar pedagogik tizimning yetakchi komponentlaridan biri bo‘lib, oliv ta‘lim muassasasining professional ta‘lim sohasidagi imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining maqsadli ta‘lim berilishi jarayoni shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy bilim sohasini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omil sanaladi. Kelajakda maxsus maktablarda dars berish yohud ta‘lim jarayonida ta‘lim sifatini samarali qilish uchun bo‘lajak pedagog talabalar quyidagilarga amal qilishi lozim hisoblanadi:

- ✓ har bir o‘quvchiga alohida layoqati individual shaxs sifatida yondashish zarur ekanligi;
- ✓ o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos jihatlarini hurmat qilish, tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash zarur;
- ✓ har bir o‘quvchining izlanuvchanlik qobiliyatlarini munosib rag‘batlantirish, ular bilan erkin kommunikativ muloqotga kirishish uchun qulay vaziyatlarni tashkil qilish;
- ✓ o‘quvchilarning mustaqil bilim ola olishi uchun sharoitlar yuzaga keltirish;
- ✓ o‘quvchilarning o‘z qarash fikrlarini erkin ifodalashlari uchun darsdan tashqari kichik guruhlardan iborat mashg‘ulotlarni tashkil qilish;
- ✓ o‘quvchilarni muloqot nutqini muntazam nazorat qilish va oshirish;
- ✓ o‘quvchilarning ota-onalari hamkorligida ishlashni tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.A. Bolibekov. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari. Actual problems of science and education in the face of modern challenges.
2. X.SHaripov, N.Muslimov, M.Ismoilova: “Kasbiy ta‘lim pedagogikasi”. Metodik qo‘llanma. – T. 2005 y.
3. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.SHamaripxodjaeva “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar

4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta’limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. – 128 b.
5. Nizomxonov S.A., Madaminov I. Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo‘llari. // Zamonaviy ta’lim» jurnali, 2014, №10.
6. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
7. <https://und.edu/blog/special-education-teacher-skills.html#d65e313--1>